

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi Andijon filiali direktori



G.A.Turaxodjaeva
yanvar 2026 y.

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

“Neonotologiyada hamshiralik ishi”

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

Ishchi o'quv dasturi
(144 - kredit)

Andijon-2026y.

Tuzuvchi:

D.M. Gapparova.

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi

G.I.Sodiqova

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali uslubchisi

Takrizchilar:

SH. X. Atajonova

ADTI davolash fakulteti uchun , Pediatriya va Neonotologiya kofedراس dosenti.

A G Arzibekov

ADTI davolash fakulteti uchun , Pediatriya kofedراس mudiri TFN dosenti.

Ishchi o'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 6. » yanvar 2026.y. bayonnoma № 1

Uslubiy bo'lim boshligi: G.I. Sodiqova

Ishci o'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi

« 7. » yanvar 2026.y. bayonnoma № 1

Pedagogik kengash raisi G.A.Turaxodjaeva

✓ 

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o'rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-son va 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ishchi o'quv dasturni ishlab chiqishda JSST va YuNISEF tomonidan tavsiya etilgan onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo'yicha xizmat ko'rsatish, yo'riqnomalar bilan ishlash, Milliy klinik protokollar bo'yicha tavsiyalardan foydalanilgan. Ishchi o'quv dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Ishchi o'quv dasturi "Neonatologiyada hamshiralik ishi" yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, o'rta tibbiyot xodimlarini 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan.

Dastur kasbiy rivojlanish va mutaxassislik fani modullaridan iborat bo'lib, ta'lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlagan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Hamshiralarni har tomonlama yetuk mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, neonatologiya fanidan yangi

nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustaxkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini Modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan O'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish;
- tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- tibbiy etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini olib borish;
- yordamga muhtoj chaqaloqlarni zamonaviy tashxislash usullari, malakali yordam ko'rsatish ko'nikalari bilan tanishtirish va o'rgatish;
- ona sutining ahamiyati, sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash, istisnosiz ko'krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash;
- chaqaloq hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukamallashtirish;
- patologiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini olib borish;
- asfiksiyada tug'ilgan chaqaloqlarga samarali reanimatsiya o'tkazish ko'nikmalariga o'rgatish;
- muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarga xos bo'lgan xavfli omillarni aniqlash ko'nikmalarini yangilash;
- zamonaviy jihozlar bilan tanishtirish va ulardan foydalanishga o'rgatish;
- irsiy kasalliklarda chaqaloq va uning oilasiga ko'rsatiladigan hamshiralik parvarishi bo'yicha maslahatlar berish;
- tug'ma nuqson bilan tug'ilgan chaqaloqlar oilasiga ko'rsatiladigan hamshiralik parvarishi bo'yicha maslahatlar berish;
- tug'ruq jarohatlari bilan tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash;

- chaqaloqlarda uchraydigan shoshilinch xolatlarda hamshiralik yordamini ko'rsatish ko'nikmalarini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

Ishchi o'quv dastur bo'yicha tug'ruq komplekslari va perinatal markazlarida faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralar uchun mo'ljallangan.

1.4. Ishchi o'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalariasoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning xuquqiy me'yorlarini, bemor xuquqlarini,rad etish mezonlarini bilish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshira olish;
- ona va bola salomatligini saqlash bo'yicha direktiv hujjatlarni o'rganish, me'yoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- chaqaloqni parvarishlashda ko'nikmalarni o'zlashtirish;
- chaqaloqlarda patologik holatlarni aniqlashda zamonaviy tekshirish usullari xaqida ma'lumotga ega bo'lish;
- chaqaloqni parvarishlashda ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha onalarga yordam berish;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralarini qo'llay olish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Ishchi o'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy parvarish va profilaktika choralarini qo'llash, «Sog'lom avlod», «Ona va bola» Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari,shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit xaftada, 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining

2020-yil 15-iyundagi №160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidolari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9-⁰⁰ da boshlanib, 13-⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: O'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Neonatologiyada hamshiralik ishi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalari

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- o'rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, ona - bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, ko'nikmalarni mustahkamlash;
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog'lig'ini saqlashga yo'naltirilgan hamshiralik jarayoni, samarali perinatal yordamini tashkil etish va parvarishni olib borish;
- sog'lom chaqaloqni ahvolini aniqlash, baho berish;
- tibbiy hujjatlarni sifatli yuritish tartibi bilan tanishadi;
- bexatar onalik bo'yicha suhbatlar o'tkazish qobiliyati yangilanadi;
- issiqlik zanjirini saqlash bo'yicha ko'nikmalari yangilanadi;
- Apgar shkalasi bo'yicha baholash qobiliyati yangilanadi;
- ko'krak sutining ahamiyatini onalarga tushuntirib berish mahorati oshadi;
- chaqaloqqa o'tkaziladigan emlash tartibi bilan tanishadi;

- chaqaloq muammolarini aniqlashni, chaqaloqning holatiga qarab, hamshira parvarishi, yordam ko'rsatish rejasini tuzish bo'yicha mahorati oshadi;
- chaqaloqlarda kasallikni oldini olish, ularning imkoniyatlarini o'rganadi;
- tug'ma nuqson bilan tug'ilgan chaqaloqlar oilasiga ko'rsatiladigan hamshiralik parvarishi bilan tanishadi;
- Daun sindromi, Patau sindromi, fenilketonuriya va galaktozemiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarda hamshiralik parvarishini olib borish ko'nikmalari yangilanadi;
- gestatsion holatiga ko'ra ekstremal kam vaznda tug'ilgan chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini olib boradi;
- kam vaznli chaqaloqlarning parvarishlash ko'nikmalari yangilanadi;
- tug'ruq jarohatlari bilan tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash ko'nikmalari yangilanadi.

3. DASTUR MAZMUNI.

“Neonatalogiyada hamshiralik ish” kursi ishchi o'quv rejası

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.1.1	Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari.	2	2	-		
1.1.2	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar	2	2	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hamshiralik amaliyotidagi o'rni	2	2	-		
1.2.2	Raqamli hamshiralik amaliyoti - elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma'lumotlarini kiritish va tahlil qilish	2	-	2		

1.2.3	Ma'lumotlar xavfsizligi, sun'iy intellekt va yangi tibbiyot platformalari	2	-	2		
1.3	Modul: Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.3.1	Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar va infekcion nazorat.	2	2	-		
1.3.2	Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi. OIV/OITS xaqida tushuncha.	2	2	-		
1.3.3	Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.			2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.4.1	Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Sterilizatsiya jarayoni. Tibbiy asboblarni sterilizatsiyadan oldingi tozalash qoidalari va usullari.	2	2	-		
1.4.2	Sterilizatsiya turlari, zamonaviy usullari. Gazli, plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari.	2	-	2		
1.4.3	Sterilizatsiya xonasida texnika xavfsizligi qoidalari.	2	-	2		
1.5	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasi ko'rsatkichlari	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.	2	-	2		
1.5.3	Sog'lom turmush tarzi yo'nalishlari. To'g'ri ovqatlanish mezonlari.	2	2	-		
1.5.4	Jismoniy faollik. Asosiy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar.	2	-	2		
1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sog'lom odamlarda, hamda bemorlarda qo'llash metodikasi.	2	-	2		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish va klinik baholash	30	12	18		
2.1.1	Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni anatomo-fiziologik xususiyatlari.	2	2	-		
2.1.2	Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog'lig'ini saqlashga yo'naltirilgan hamshiralik jarayoni.	2	2	-		
2.1.3	Issiqlik zanjirini ta'minlash, antropometriya o'tkazish.	2	-	2		

2.1.4	Ona suti bilan boqish siyosatini qo‘llash	2	2	-		
2.1.5	Chaqaloqlarda moslashuv jarayonlari, fiziologik holatlar	2	2	-		
2.1.6	ABSD algoritmi. Apgar shkalasi bo‘yicha baholash	2	-	2		
2.1.7	Shoshilinch holatlarda parvarish choralari ko‘rsatish.	2	-	2		
2.1.8	Zamonaviy tibbiy apparatlar bilan ishlash	2	-	2		
2.1.9	Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni baholash,	2	2	-		
2.1.10	Chaqaloq muammolarini aniqlashni, chaqaloqning holatiga qarab, hamshira parvarishi	2	-	2		
2.1.11	Ko‘krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash	2	-	2		
2.1.12	Chaqaloq hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish	2	-	2		
2.1.13	Nafas olish buzilishlarida apparatlardan to‘g‘ri foydalanish	2	-	2		
2.1.14	Tibbiy hujjatlarni sifatli yuritish tartibi	2	2	-		
2.1.15	Patologiya bilan tug‘ilgan chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini olib borish	2	-	2		
2.2	Modul: Muddatidan oldin tug‘ilgan va kam vaznli chaqaloqlarda hamshiralik parvarishi	24	10	14		
2.2.1	Muddatidan oldin tug‘ilgan hamda kam vaznli chaqaloqlarning anatomo-fiziologik xususiyatlari	2	2	-		
2.2.2	Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlar klassifikatsiyasi, gestatsion yoshiga qarab ajratish.	2	2	-		
2.2.3	Ballard va Apgar shkalalari bo‘yicha baholash.	2	-	2		
2.2.4	Kuvezdan to‘g‘ri foydalanish.	2	-	2		
2.2.5	Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarni ovqatlantirish va parenteral qo‘llab-quvvatlash usullari.	2	-	2		
2.2.6	Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda nekrotik enterokolitda hamshiralik yondashuvi.	2	-	2		

2.2.7	Apparatlar bilan ishlash, dezinfeksiya qoidalari,	2	-	2		
2.2.8	Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarga xos bo‘lgan xavfli omillarni aniqlash	2	2	-		
2.2.9	Kam vaznli chaqaloqlarning parvarishi, ularni ovqatlantirish.	2	-	2		
2.2.10	Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarni tibbiy kuzatuv va doimiy nazorat	2	2	-		
2.2.11	Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarni vazn va jismoniy rivojlanishni baholash	2	2	-		
2.2.12	Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarni gigiyena va parvarish qoidalari	2	-	2		
2.3	Modul: Neonatal davridagi kasalliklar	26	14	12		
2.3.1	Neonatal davrda uchraydigan giperbilirubinemiyaning klinik belgilari, tashxis qo‘yish va parvarish tamoyillari	2	2	-		
2.3.2	Chaqaloqlarda gemolitik va gemorragik kasalliklar klinik belgilari va parvarish tamoyillari	2	2	-		
2.3.3	Chaqaloqlarda uchraydigan gemolitik va gemorragik kasalliklar hamshira parvarishi	2	-	2		
2.3.4	Tug‘ma infeksiyalar. Sepsis	2	2	-		
2.3.5	Neonatal davrda uchraydigan nafas yo‘llari patologiyalarida hamshira parvarish	2	-	2		
2.3.6	Neonatal davrda uchraydigan meningit va zotiljam kasalliklar klinik belgilari va tashxis qo‘yish.	2	2	-		
2.3.7	Neonatal davrda uchraydigan meningit va zotiljam kasalliklarida hamshira parvarishi.	2	-	2		
2.3.8	Chaqaloqlarda uchraydigan osteomiyelit kasalligi klinik belgilari, tashxis qo‘yish va parvarish tamoyillari.	2	2	-		
2.3.9	Fototerapiya texnikasi, bilirubin miqdorini aniqlash	2	-	2		
2.3.10	TORCH infeksiyalarida parvarish	2	2	-		
2.3.11	OIV bilan kasallangan onalardan tug‘ilgan chaqaloqlarga yordam ko‘rsatish	2	-	2		
2.3.12	Gepatit B bilan kasallangan onalardan tug‘ilgan chaqaloqlarga yordam ko‘rsatish	2	2	-		

2.3.13	Sil va zaxm bilan kasallangan onalardan tugʻilgan chaqaloqlarga yordam koʻrsatish	2	-	2		
2.4	Modul: Irsiy kasalliklarda va tugʻma nuqsonlarda hamshiralik parvarishi	12	4	8		
2.4.1	Irsiy kasalliklar va tugʻma nuqsonlarni erta aniqlash hamda parvarish qilish.	2	2	-		
2.4.2	Skrining markazlari faoliyati, genetik sindromlar, tugʻma gipotireoz, fenilketonuriya va boshqa irsiy kasalliklarning klinik belgilari.	2	2	-		
2.4.3	Tugʻma nuqsonli chaqaloqlarda hamshiralik parvarishi, insonparvarlik tamoyillari va oilaviy maslahat ishlari	2	-	2		
2.4.4	Tugʻma gipotireoz va fenilketonuriya bilan tugʻilgan chaqaloqlarni parvarishlash.	2	-	2		
2.4.5	Irsiy kasalliklarning dastlabki belgilarini aniqlay olishi, skrining natijalari asosida kuzatuvni tashkil etish	2	-	2		
2.4.6	Tugʻma nuqsonli chaqaloqlarga parvarish va ovqatlantirish yordamlar	2	-	2		
2.5	Modul: Tugʻruq jarohatlari bilan tugʻilgan chaqaloqlarni parvarishlash.	6	2	4		
2.5.1	Tugʻruq shishi, kefalogramatoma, subaponevrotik qon quyilishlar, yuz nervi, bosh va orqa miya jarohatlarida parvarish va yordam koʻrsatish usullari	2	2	-		
2.5.2	Tugʻruq jarohatni erta aniqlash, fiziologik oʻzgarishlarni baholash	2	-	2		
2.5.3	Tugʻruq jarohatda shoshilinch yordam choralarini koʻrsatish	2	-	2		
2.6	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam koʻrsatish.	6	2	4		
2.6.1	Favqulodda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, Tibbiy saralash bosqichlari.	2	2	-		
2.6.2	Ommaviy talofat oʻchogʻida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam koʻrsatish tamoyillari.	2	-	2		
2.6.3	Terminal holatlarda birinchi yordam koʻrsatish. Yurak-oʻpka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi .	2	-	2		

3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
3.1	O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tuman (shaxar) darajasida ambulatory va stasionar sharoitida ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari	4	-	-	4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

3.2.1 Modul mazmuni

“Neonatalogiyada hamshiralik ish” kursi mazmuni

1.0.Kasbiy rivojlantirish moduli.

1.1Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati 4 kredit

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	PF-158- “O'zbekiston 2030” strategiyasi mazmun mohiyati haqida Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya nima? Tibbiyotdagi islohotlar – bu sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy samaradorlikni yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan o'zgarishlar. Misol: elektron sog'liqni saqlash tizimlari, poliklinika va dorixonalarni raqamlashtirish, diagnostika va davolash standartlarini takomillashtirish. Korrupsiya – bu tibbiyot tizimida qonunga xilof ravishda shaxsiy foyda olish uchun amalga oshiriladigan harakatlar. Misol: noto'g'ri retsept yozish, tibbiy xizmat uchun ortiqcha to'lov, shifokor tomonidan bemorning manfaatlarini e'tiborsiz qoldirish. Tibbiyot mutaxassisi uchun bu ikki jihatni tushunish va ularga qarshi samarali kurashish kompetensiya talab qiladi. 2. Kompetensiya tushunchasi Kompetensiya – bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka majmui. Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya bo'yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Tibbiyot tizimidagi islohotlar, ularning maqsad va prinsiplarini bilish

	Sogʻliqni saqlash qonunchiligi va etika normalarini tushunish Korrupsiyaning turlari va oqibatlarini bilish B) Amaliy koʻnikmalar Sogʻliqni saqlash jarayonlarini samarali va shaffof boshqarish Resurslardan tejamkor va qonuniy foydalanish Korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Tibbiyot jarayonlarida islohotlarni baholash Korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish Qaror qabul qilishda axloqiy va qonuniy asoslarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar, jamoa va rahbariyat bilan shaffof va samarali muloqot qilish Korrupsiyaga qarshi tashabbuslarni targʻib qilish Axborot va trening orqali xodimlarni islohotlar va etikaga oʻrgatish E) Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar Axloqiy prinsiplarni saqlash Javobgarlik va fidoyilik Sogʻliqni saqlash tizimini shaffof va adolatli qilishga intilish
Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	1. Sovgʻalar va ishbilarmonlik mehmondoʻstligi bilan bogʻliq korrupsiyaviy xavf-xatarlar: • Qachon sovgʻa berish yoki qabul qilish qonunga zid va korrupsiya sifatida baholanishi mumkinligini; • Qonuniy ishbilarmonlik munosabatlari bilan shaxsiy manfaat oʻrtasidagi farqni; • Qonun va ichki hujjatlarda belgilangan sovgʻalarni qabul qilish/bosh tortish qoidalarini; • Sovgʻa yoki mehmondoʻstlik orqali taʼsir oʻtkazish holatlari bilan bogʻliq jiddiy xavf-xatarlarni. • Uchinchi shaxslar orqali pul yoki sovgʻa qabul qilish kabi yashirin xavflarni aniqlashni. 2. Korrupsiyaviy harakatlar tushunchasi va ularning turlari: • Korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora berish/olish, suisteʼmol qilish, manfaatlar toʻqnashuvi, soxta hujjat tayyorlash va h.k.) nima ekanini; • Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilishi

	mumkin bo'lgan korrupsiyaviy harakatlar turlari. 3. Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik: • Qonun va ichki meyoriy hujjatlarga ko'ra xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy buzilishlarni; • Intizomiy choralar (hayfsan, lavozimdan ozod etish, tanbeh va h.k.) qanday holatlarda qo'llanilishini; • Xizmat tekshiruvi, intizomiy ish yuritish va qaror qabul qilish tartibini. 4. Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik: • O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiya bilan bog'liq moddalar (210-modda – pora berish, 211-modda – pora olish, 205-modda – hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish va b.); • Jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari va jazo choralari (jarima, ozodlikdan mahrum etish va h.k.); • Aybdor shaxslarga nisbatan amaliyotda qanday jazo qo'llanilishi mumkinligi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	1. Sovg'alar va mehmondo'stlik bilan bog'liq xatarlarni baholash va to'g'ri munosabatda bo'lish ko'nikmasi • Qonuniy va noqonuniy sovg'a/mehmondo'stlik o'rtasidagi farqni anglash; • Sovg'a yoki xizmat qabul qilishdan bosh tortish yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilish; • Ishbilarmonlik munosabatlarida xolislik va kasb etikasiga amal qilish. 2. Fuqarolar bilan tozalik va shaffoflikka asoslangan munosabat o'rnatish ko'nikmasi • O'zaro munosabatlarda xizmat vazifalariga tayanish, shaxsiy manfaatlardan qochish; • Kontragentlar bilan kelishuvlarda korrupsiya xavfini oldindan ko'ra bilish; • Tashqi ta'sirlarga moyillikdan saqlanish va qarorlarni mustaqil qabul qilish. 3. Hujjatlar ekspertizasi va ijrosini xolis va shaffof amalga oshirish ko'nikmasi • Hujjatlar bilan ishlashda faktlar va dalillarga tayanish; • Ijro nazorati jarayonida "shaxsiy munosabatlar" emas, qonun va reglamentlarga asoslanish; • Hujjatlar orqali manfaatli tarafni qo'llab-quvvatlash xavfini aniqlash va undan saqlanish. 4. Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabardor qilish ko'nikmasi

		• Korrupsiya holatlarini qanday va qayerga xabar qilishni aniq bilish; • Xabar berishdagi anonimlik, himoya va huquqiy kafolatlardan xabardor bo'lish; • Xabar mazmunini aniq, asosli va ishonchli tarzda shakllantirish. 5. Qonunga muvofiq murojaat qilish va xabar berish ko'nikmasi Korrupsiya holatlari yuzaga kelganda qanday organlarga, qanday tartibda murojaat qilishni bilish;
O'quv mazmuni:	moduli	Korrupsiya tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish; Milliy va xalqaro qonunchilikni tahlil qilish; Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'rganish; Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish; Amaliy holatlar tahlili asosida huquqiy fikrlashni rivojlantirish. 1. Korrupsiya tushunchasi – Korrupsiya nima ekanligi, uning ta'rifi, mohiyati va kelib chiqish sabablari; – Korrupsiyaning asosiy turlari: pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi va h.k. 2. Milliy qonunchilik asoslari – "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning asosiy normalari; – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi korrupsiyaga oid moddalar; – Korrupsiyaga qarshi Milliy strategiya va dasturlar mazmuni. 3. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari – Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining maqsadlari va vazifalari; – Hukumat organlari va jamoatchilikning bu sohadagi o'rni; – Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali korrupsiyani kamaytirish usullari. 4. Huquqiy madaniyat va ong – Korrupsiyaning jamiyatga va davlatga keltiruvchi zararlari haqida tushuncha; – Fuqarolarning huquqiy bilimi va mas'uliyatining ahamiyati; – Etik meyorlarga amal qilish va halollikning ahamiyati. 5. Amaliy misollar tahlili orqali bilimlarni mustahkamlash – Real hayotdagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish;

	– Ularni huquqiy nuqtai nazardan baholash; – Qonuniy va samarali yechimlar taklif qilish qobiliyatini rivojlantirish. Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi – Pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, dori vositalari bilan bog'liq jinoyatlar. 2. Korrupsiyaviy jinoyatlarning asosiy sabablari – Nazoratning sustligi, tizimdagi shaffoflik yetishmasligi, huquqiy madaniyat pastligi, jamiyatda jazosizlik hissi. 3. Ichki va tashqi omillar – Tibbiyot muassasalaridagi tashkiliy kamchiliklar; – Aholining korrupsiyaga nisbatan murosali munosabati. 4. Korrupsiya uchun javobgarlik turlari – Jinoiy javobgarlik: Jinoyat kodeksining 210, 211, 212-moddalari; – Ma'muriy va intizomiy javobgarlik: jarima, ishdan bo'shatish, ogohlantirish.
Adabiyotlar: 1. PF-158-son 11.09.2023y. . "O'zbekiston-2030" strategiyasi 2. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3088008. 3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/111453. 4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://www.lex.uz/acts/111460. 5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/97664. 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli Qarori [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3105125. Elektron ta'lim resurslari: - www.minzdrav.uz - www.gov.uz - www.press-service.uz - www.parlament.gov.uz - www.uza.uz - www.cbu.uz - www.lex.uz - www.ziynet.uz	

1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Tibbiyotda raqamli texnologiyalar bo'yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Raqamli texnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishini bilish Elektron sog'liqni saqlash tizimi (EHR/EMR) va telemeditsina printsiplarini tushunish Ma'lumot xavfsizligi va bemor maxfiyligini himoya qilish qonunchiligini bilish AI va diagnostika dasturlarining asosiy ishlash printsiplari B) Amaliy ko'nikmalar Elektron sog'liqni saqlash tizimidan samarali foydalanish Telemeditsina orqali bemorlar bilan masofaviy konsultatsiya o'tkazish Raqamli diagnostika vositalarini ishlatish (masalan, laboratoriya natijalarini tahlil qilish) Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Raqamli ma'lumotlardan tahlil qilish va xulosalar chiqarish Diagnostika va davolash bo'yicha qarorlarni AI va boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda qabul qilish Ma'lumotlar xavfsizligi va etik cheklovlarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar va hamkasblarga raqamli texnologiyalarni tushuntirish Telemeditsina konsultatsiyalarida aniq va samarali muloqot qilish Raqamli tizimlar bo'yicha jamoa bilan hamkorlik qilish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini; • kompyuterni tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni; • tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni;

	• sogʻlom jamiyat qurishda axborotlashtirishning oʻrnini; • sogʻliqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini; • axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini; • tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini; • maʼlumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish; • xozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda- tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>- registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.
Oʻquv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika xavfsizligini; • dasturlar bilan ishlashni; • maʼlumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini; • kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmogʻida ishlashni; • elektron pochta dasturi bilan ishlashni; • AKT sogʻliqni saqlash tizimida qoʻllashni.
Oʻquv moduli mazmuni:	Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qoʻllanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik taʼminoti toʻgʻrisida nazariy va amaliy bilimlar Tibbiy statistik maʼlumotlarni toʻgʻri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qoʻllash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy koʻnikmalarga ega boʻlish, internet tarmogʻida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, maʼlumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- 1.O.N.Djurayev Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar buyicha) Toshkent 2020y
 - 2.Aminov S.M “Axborot kommunikatsion texnologiyalar” 2020 y
 - 3.Tursunov, Nazarov “Ta’limda axborot texnologiyalari” 2021 y
 - 4.Ayupov Ravshan Hamdamovich “Ta’limda axborot texnologiyalari” TDPU, 2020 y
 5. Informatika asoslari
Mualliflar: M. Aripov, A. Haydarov
Yuklab olish:
Informatika asoslari PDF
(https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm_source=chatgpt.com)
 6. Informatika va axborot texnologiyalari
Muallif: Z.S. Abdullayev
 7. Kompyuter savodxonligi kitobchasi
Yuklab olish:
Kompyuter savodxonligi PDF(https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm_source=chatgpt.com)
 8. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar
Mualliflar: Hoshimov, Tulyaganov
 9. Informatika (klassik darslik)
Muallif: N.V. Makarova
- Elektron ta’lim resurslari:**

1. DMED haqida asosiy tushuncha (Kapital.uz)

2. O‘zbekcha tayyor adabiyotlar (PDF / DOC) (soff.uz)

2. DMED bo‘yicha test savollar (Hujjat24)

1.3.Modul: Infeksion nazorat

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyani shakllanishini ta’minlovchi bilim,	Infeksion nazoratda kompetensiya Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko‘nikma va mas’uliyatli yondashuvi majmui. Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ✦ Bilimlar: • Infeksion kasalliklar yuqish yo‘llari • Sanitariya-epidemiologik me‘yorlar

ko'nikmalar	• Dezinfeksiya va sterilizatsiya turlari ◆ Amaliy ko'nikmalar: • To'g'ri qo'l yuvish texnikasi • Himoya vositalarini to'g'ri kiyish va yechish • Asboblarni xavfsiz qayta ishlash ◆ Mas'uliyat va xulq-atvor: • Qoidalariga qat'iy rioya qilish • Infeksiya xavfini baholay olish • Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko'rish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN); • davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan sanitar talablarni va "infeksion nazorat komissiyasi" ish faoliyatini; • sanitar me'yor va qoidalar bo'yicha amaldagi hujjatlarni; • OIV/OITSGa oid normativ hujjatlarni; • OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasini; • OIV yuqish yo'llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini; • kasalliklardan (COVID -19) himoyalalanish tamoyillarini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda o'tkaziladigan chora-chadbirlar yig'indisini; • o'ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o'tkaziladigan chora-tadbirlarni; • himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini. • qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibini;
O'quv moduli mazmuni:	Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherlarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o'ta xavfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalalanish tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar 1. San. Q va M. № 0342/17 "DPMLarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi"	

10 yanvar 2017 y.

2. San. Q va M. № 03-17-15.”O‘zbek.Res.davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig‘ish,saqlash va yo‘q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari”

3.V.N.Turaqulov,X.A.Raxmatova.N.A.Avezova.”Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi”O‘quv qo‘llanma.Navoi nashriyot.2019yil.

4.F.I Salomova, Sh.T Iskandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020

5.S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o‘quv qo‘llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 <https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400>

6.COVID-19 bo‘yicha milliy qo‘llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.

7.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti

→ **rasmiy sanitariya me‘yorlari va hujjatlar**

8.ZiyoNET

→ bepul darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

Elektron ta’lim resurslari:

<http://www.edu.uz>

<http://www.pedagog.uz>

www.tma.uz,

www.lex.uz

<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko’nikmalar	Sterilizatsiya jarayonida texnika xavfsizligi — xodimlar salomatligi va atrof-muhitni himoyalashning asosiy omili. Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: • Nazariy bilimlar: sterilizatsiya usullarining fizik-kimyoviy asoslarini bilish • Amaliy ko‘nikmalar: uskunalarni to‘g‘ri ishlatish va nazorat qilish • Xavf-xatarni baholash: issiqlik, bosim, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash • Me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish: sanitariya qoidalari va xalqaro standartlar • Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik: nosozlik yoki avariya holatida to‘g‘ri harakat qilish 3. Zamonaviy yondashuvning ahamiyati Zamonaviy sterilizatsiya texnologiyalarini joriy etish: • infeksiya xavfini kamaytiradi,

	• ish unumdorligini oshiradi, • xodimlar va bemorlar xavfsizligini ta'minlaydi, • sifat menejmenti tizimlarini mustahkamlaydi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Sterilizatsiya sohasi bo'yicha mavjud bo'lgan fizikaviy, kimyoviy, mexanik, biologik, aralash va yangi zamonaviy usullar to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish Sterilizatsiya va uning turlarini. • Gazli sterilizatsiya usullarini • Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullarini • Sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalariga haqida tushunchaga ega bo'lishi
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkaftida sterillashni, • tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini, • texnika xavfsizligini, • tibbiy vositalarning sterilizatsiya sifatini tekshirish usullarini bajara olishi.
O'quv moduli mazmuni:	Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari. Sterilizatsiya va avtoklavlash tadbirlariga tinglovchilarni amaliy tomondan o'qitish va o'rgatish. Mashg'ulotlar davomida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari xaqida tushuncha berish, zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish, texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha ma'lumotlar berib borish. Asosiy diqqat va e'tiborni sterilizatsiya ishlarini to'g'ri olib borish, sterilizatsiyaning sifatli bo'lishini ta'minlovchi tadbirlar va uni tekshirish uchun zarur indikatorlardan to'g'ri foydalanish va ishlatish qoidalariga to'la amal qilish.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.K.F.Melibayeva,G.F.Ergasheva. "Aseptika, antiseptika va dezinfeksiya" Uslubiy qo'llanma.Qo'qon.2025yil. 2.V.N.Turaqulov,F.A.Qurbonov."Xirurgiyada xamshiralik parvarishi"O'quv qo'llanma.Navoi nashriyot.2019 yil. 3. G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Bug'li sterilizator(Avtoklav)"Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent.2024 yil. 4.G.T Dxritiman,G.T.Iskandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Plazmali sterilizator" Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar.Toshkent 2024 yil. 5.Elektron ta'lim resurslari: 1. Zamonaviy sterilizatsiya usullari	

• Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiya xususiyatlari Muallif: Arzimatova Ra'no Pardaboy qizi (JournalSS)
2. Aseptika va antiseptika asoslari • Tibbiyot xodimlarining aseptika va antiseptik sterilizatsiya usullarini qo'llanishi Mualliflar: ◦ Sh.Ya. Radjabov ◦ G.R. Kadamova ◦ M.M. Olimova (pedagogs.uz)
3. Mikrobiologiya va sterilizatsiya • Mikrobiologiya va virusologiya • Mualliflar: OTM professor-o'qituvchilari (NamDU) (www.namdu.uz)
4. Umumiy tibbiyot va dezinfeksiya • Tibbiyotda dezinfeksiya va sterilizatsiya asoslari (book.bsmi.uz)
5. Sterilizatsiya usullari va qo'llanilishi, Stomatologiyada sterilizatsiya • Sterilizatsiya usullari va ularning qo'llanilishi • Muallif: Shoda Team (Hujjat24)

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Jismoniy faollik va sog'lom turmushda kompetensiyalar Bu sohadagi kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: • Sog'lom turmush qoidalari bo'yicha bilimga ega bo'lish • Shaxsiy sog'liqni baholay olish va nazorat qilish • To'g'ri ovqatlanish rejasini tuzish ko'nikmasi • Jismoniy mashqlarni xavfsiz va samarali bajarish • Sog'lom hayot tarzini boshqalarga targ'ib qila olish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko'rsatkichlarini; • sog'lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini; • salomatlikka ta'sir etuvchi omillar: • irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni; • atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'sirini; • salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va

	algoritmnlarni; • to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplarini; • kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishni; • jismoniy faollik va chiniqishning • salomatlikka ta‘sirini; • zararli odatlarning organizmga ta‘sirini; • tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini • jalb etishni; • sog‘lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o‘rtasida shakllantirish va targ‘ib etishni;
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni; • sog‘lom turmush tarzini qo‘llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o‘rtasida suhbatlar olib borishni; • individual salomatlik va uni asrash yo‘llarini; • jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta‘siri mavzularida aholi o‘rtasida tadbirlar tashkil etishni; • maqsadli guruhlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borishni; • inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini; • jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog‘lom odamlarda va bemorlarda qo‘llash uslublarini; • Skandinaviya yurish usullarini.
O‘quv moduli mazmuni:	Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta‘siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta‘siri, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.
Tinglovchilarni mustaqil o‘zlashtirishi uchun adabiyotlar ro‘yxati: 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4887-sonli qarori. 2. VMQ 2025 y. 6-may № 297 “ Sog‘liqni saqlash va ta‘lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan “Toza qo‘llar” dasturi.	

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ 4063-sonli qarori.**

4. **SSV buyrug‘i № 97, 2024 y,27mart.** “Axoli orasida kasalliklarni erta aniqlash, skrining dasturlarni samarali o‘tkazish,aniqlangan kasalliklar bo‘yicha manzilli sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish” to‘g‘risida.

5.**SSV ning № 175-buyrug‘i,2025yil,20-iyun.”** Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”

6.Sh.Zokirxo‘jayev,A.Gadoyev,M.Turimbetova “Dietologiya ” 2023 yil

7.A.Gadayev,L.Musadjanova,N.Pirmatova, N.Mo‘minova “Shifobaxsh taomlar ” 2017 yil.

8.Sh.Qurbonov,A.Qurbonov “To‘g‘ri ovqatlanish qoidalar ”2014 yil

9. **Elektron ta‘lim resurslar:**

1. inlibrary.uz – sog‘lom turmush maqolalari
2. globalsciences.uz – ilmiy tadqiqotlar
3. avitsenna.uz – ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar
4. yuz.uz – sog‘lom turmush dasturlari
5. hujjat 24.uz – o‘quv materiallar

2.1. Modul. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish va klinik baholash

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	30 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	Mazkur modul yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish, ularning anatomo-fiziologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va klinik baholashga bag‘ishlangan. Tinglovchilar chaqaloqning holatini aniqlash, antropometriya o‘tkazish, issiqlik zanjirini ta‘minlash, ona suti bilan boqish siyosatini qo‘llash va reanimatsiya asoslarini o‘rganadilar. Modul davomida chaqaloqlarda moslashuv jarayonlari, fiziologik holatlar, ABSD algoritmi, shoshilinch holatlarda parvarish choralarini ko‘rsatish, zamonaviy tibbiy apparatlar bilan ishlash va ularni dezinfeksiya qilish ko‘nikmalarini shakllantiriladi. Natijada tinglovchi yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni baholash, parvarish qilish, ona suti bilan boqish, reanimatsiya choralarini bajarish va nafas olish buzilishlarida apparatlardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• anatomo-fiziologik xususiyatlarini • ona suti bilan boqishni afzalligini • chaqaloqlarda moslashuv jarayonlari • fiziologik folatlarni • ABSD algoritmini • yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni baholashni
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• chaqaloqning holatini aniqlashni • antropometriya o‘tkazishni • issiqlik zanjirini ta’minlashni • shoshilinch holatlarda parvarish choralari ko‘rsatishni • zamonaviy tibbiy apparatlar bilan ishlashni • yangi tug‘ilgan chaqaloqni parvarish qilishni • nafas olish buzilishlarida apparatlardan to‘g‘ri foydalanishni

2.2. Modul. Muddatidan oldin tug‘ilgan va kam vaznli chaqaloqlarning parvarishi

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	24 kredit
- 4) 10 kundan so`ng.

33. Chaqaloqlarning 1 kunlik uyqu davomiyligi necha soatni tashkil qiladi?

- 1) *20-22 soat;
- 2) 18-20 soat;
- 3) 24 soat;
- 4) 16-18 soat.

34. Dastlabki antropometrik o'lchovlar chaqaloqlarda qachon o'tkaziladi?

- 1) 24 soat ichida;
- 2) 2 kundan so'ng;
- 3) C.* 2 soatdan so'ng;
- 4) 5soatdan so'ng.

35. Chaqaloqni kindigi nima bilan artiladi?

- 1) 70% etil spirti bilan;
- 2) B.* 96% spirt;
- 3) furatsilin bilan;
- 4) 3% vodorod peroksid.

36. Tug'ruq xonada chaqaloqlar necha kasallikka qarshi emlanadi?

- 1) 4 ta;
- 2) * 3 ta;
- 3) 2 ta;
- 4) 1 ta.

37. Chaqaloq 1chi qaysi kasallikka qarshi emlanadi?

- 1) BSJ;
- 2) OPV;
- 3) C.* VGB;
- 4) QPQ.

38. Virusli gepatit B dan so'ng chaqaloq qaysi kasallikka qarshi emlanadi?

- 1) Qizamiq;
- 2) Ichak infeksiyasi;
- 3) Pnevmoniya;
- 4) D.* Sil va sholga qarshi.

39. BSJ vaksinasi qayerga qilinadi?

- 1) * Teri orasiga;
- 2) Muskul orasiga;
- 3) Teri ostiga;
- 4) Teri ichiga.

40. Chaqaloqlarning 1 chi patronaji qachon amalga oshiriladi?

- 1) 10 kundan so'ng;
- 2) 5 kundan so'ng;
- 3) *3 kun ichida;
- 4) 15 kundan so'ng.

41. Chaqaloqni cho'miltirishda suvni harorati necha gradus bo'lishi kerak?

- 1) *37°C;
- 2) 35°C;
- 3) 39°C;
- 4) 22°C.

42. Chaqaloqni cho`miltirishda xona harorati necha gradus bo`lishi kerak?

- 1) 20°C;
- 2) *22°C;
- 3) 25°C;
- 4) 27°C.

43. Asfiksiya nima?

- 1) Haroratning ko`tarilishi;
- 2) Shaytonlash;
- 3) Qayt qilish;
- 4) *Bo`g`ilish.

44. Quydagilarni qay biri chaqaloqlardagi fiziologik holatlarga kiradi?

- 1) A.* Tug`ruq shishi;
- 2) B. Gipoksiya;
- 3) C. Asfiksiya;
- 4) D. Talvasa .

45. Fiziologik sariqlikning sababi nima?

- 1) Gipobillirubinemiya;
- 2) B.*Giperbillirubinemiya;
- 3) Gipoksiya;
- 4) GiperkapniY.

46. Teridagi o`tkinchi holatlarni aniqlang?

- 1) Terining oddiy bichilishi;
- 2) B.*Terining fiziologik ko`chishi;
- 3) Psevdofrunkulyoz;
- 4) Frunkulyoz.

47. Chala tug`ilgan chaqaloqning nechta darajasi bor?

- 1) 2-ta;
- 2) 3-ta;
- 3) C.*4-ta;
- 4) 6-ta.

48. Quydagi raqamlarni qay biri chala tug`ilgan chaqaloqqa hos?

- 1) 38-40 hafta 2.500 gr;
- 2) B.*35-37 hafta 2.001 gr;
- 3) 39 hafta 3.200 gr;
- 4) 41hafta 4.150 gr.

49. Chala tug`ilgan chaqaloqlarni cho`miltirishda suvning harorati necha gradus bo`lishi kerak?

- 1) A.* 38-39°C;
- 2) B. 35—36° C;
- 3) C. 36-41°C;
- 4) D.40-41°C.

50. Chala tug`ilgan chaqaloqni 3 chi daradarajasi necha haftalik?

- 1) 37-35 hafta;
- 2) 34-32 hafta;
- 3) C.*31-29 hafta;

4) 29 hafta.

6.4 Amaliy ko'nikma.

Chaqaloqning tana haroratini normal ushlab turish

Ta'rif

Chaqaloqning normal tana harorati – $36,5-37,5^{\circ}\text{S}$.

Termoneytral atrof-muhit – chaqaloq organizmi tomonidan minimal darajadagi modda almashinuvi va minimal darajadagi kislorod iste'mol qilinishida normal gavda harorati ushlab turilgan muhitdir.

“Issiqlik zanjiri” – chaqaloq issiqlik yo‘qotishining oldini olish va tana haroratini normal darajada ushlab turishga qaratilgan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlardir.

Maqsad

Chaqaloqning normal tana haroratini ushlab turish.

Vositalar:

Nurli issiqlik manbai.

Chaqaloq uchun oldindan isitib qo‘yilgan ichki kiyimlar to‘plami.

Umumiy qabul qilingan standartlarga mos keluvchi xona isitkichlari.

Zarur xavfsizlik choralariga mos keluvchi isituvchi vositalar.

Qo‘ltiq haroratini o‘lchash uchun individual termometr.

Xona termometri.

Issiqlik himoyasini 10-ta qadami

Usullar (issiqlik zanjiriga amal qilish)

1. Issiq tug‘ruq zali

Tug‘ruq zalining haroratini $25-29^{\circ}\text{S}$ atrofida ushlab turish

Termometrni tug‘ruq zalining ichki devorlaridan biriga joylashtirish

Chaqaloqning normal tana haroratini ushlab turish uchun atrof-muhitning zarur bo‘lgan harorati

Tana vazni	Atrof-muhit harorati		
	$29,5^{\circ}$	$26,5^{\circ}$	$24,0^{\circ}$
1,5 – 2	Birinchi 2 kunda	Hayotining 3 kunida	3- xaftadan
2-3		Xayotining birinchi xaftasi	2- xaftadan
3 va >		Hayotining birinchi kunlaridan	Hayotining 2- kundan

Chaqaloqni reanimatsiya qilish uchun joy xona ichki devorlaridan birining oldida joylashgan bo'lishi lozim. U isitiladigan va unga 3 tomondan borish imkoniyati bo'lishi kerak.

2. Zudlik bilan artish

Yo'rgak va qalpoqchani oldindan isitib qo'yish lozim.

Tug'ilganidan so'ng darhol issiq yo'rgak bilan chaqaloqning tanasi va boshini artish.

Xo'l bo'lgan yo'rgakni qurug'iga almashtirish.

Chaqaloqning ustini yopish va boshiga qalpoqcha kiydirib qo'yish.

3. "Terini – teriga" aloqasi

Tug'ilganidag so'ng chaqaloqni darxol onasining ko'kragi, qorniga yotkazib qo'yish.

4. Ko'krak bilan ovqatlantirish

Ilk marotaba barvaqt ko'krakka qo'yishga ko'maklashish.

5. Chaqaloqni kiyintirish

Tug'ruq zalidan ko'chirishdan oldin chaqaloqqa oldindan isitib qo'yilgan kiyim kiydiring va uni issiq ko'rpa bilan o'rab qo'ying. Siqib yo'rgaklamang!

6. Ona va chaqaloqning birga bo'lishi

Ona va chaqaloqning kechayu kunduz birga bo'lishini ta'minlang.

7. Issiq transportirovka qilish

Transportirovka qilish paytida chaqaloqni issiqlik bilan ta'minlang.

8. Issiqda jonlantirish

Agar yangi tug'ilgan chaqaloq reanimatsiya tadbirlarini o'tkazishga muhtoj bo'lsa, unga zarur bo'lgan harorat rejimini ta'minlab berish lozim.

9. O'qitish

Tibbiy personal va chaqaloqning oila a'zolarini muntazam ravishda issiqlik zanjirini ushlab turish tamoyillariga o'qitish. Tug'ruq zalida chaqaloqning qo'ltig'idagi tana haroratini 2 marta o'lchash lozim.

Kindik qoldig'iga birlamchi ishlov berish.

Maqsad: kindikdan qon ketishi va infeksiya tushishining oldini olish.

Jihozlar: Steril qo'lqoplar, steril tagliklar, steril rezinali xalqa yoki Rogovin qisqichi, yoki bmr martalik plastik qisqich, steril qisqich.

Ko'rsatma: Chaqaloqlarga majburiy ishlov berish usuli

Kindik qoldig'iga birlamchi ishlov berish tuqruqdan keyingi birinchi 2 soat ichida bajariladi

Ko'llar yuvilib. Steril qo'lqoplar kiyiladi

Kindik qoldig'iga rezina xalqa kiritilgan qisqich qo'yiladi

Ikkinchi qisqich bilan xalqani kindik qoldig'iga kindik xalqasidan 3-4 sm

masofada qo'yiladi

Agar bular bo'lmasa (uydagi, mashinadagi tug'ruq) bint yoki bir necha qavat qilingan ipni etil spirti yoki aroqda namlab ishlatiladi

Rezina xalqadan 1sm masofada qo'yiladi

Kindik qoldig'i quruq va ochiq qoldirishi lozim

Chaqaloq ko'zlariga ishlov berish.

Maqsad: blennoreyaning oldini olish

Ko'rsatma: barcha Chaqaloqlarga tugilgandan sung birinchi soat ichida utkaziladi.

Jihozlar: 1% tetratsiklin yoki eritromitsin surtmasi (maz) (har bir bola uchun individual tyubik); Steril yoki toza bir martalik qo'lqoplar;

Qo'llarni yuvib, qo'lqoplarni kiyiladi

Pastki qovog'ini pastga tortib, ikkala ko'zining kon'yunktival qopchasiga bir martadan maz suriladi

Ko'z shilliq pardasiga tyubik tegmasligi lozim!

Bajarilgan muolaja kasallik tarixiga yozib qo'yiladi.

Asoratlar: Ko'zning infitseksiyalanishi (aseptika qoidalariga rioya qilmaganda), ko'zning mexanik zararlanishi.

Ko'krakka birlamchi tutish.

Maqsad: chaqaloqning tashqi muhitga, ichak va terisining normal bakterial flora ga ertaroq ega bo'lishi, laktatsiyaning tiklanishi, ona va bola o'rtasida ruhiy aloqa o'rnatilishi, yiringli-septik kasalliklar sonini kamaytirish, me'da-ichak faoliyatining tiklanishi, gipoglikemiyaning oldini olish, bachadonning qisqarishi imkon beradi.

Ko'rsatma: barcha chaqaloqlarga tugilgandan sung birinchi soat ichida utkaziladi

Bolani ona ko'kragiga qulay tutish va bola emishga tayyorligiga ishonch hosil qilish (qidirish va emish reflekslari mavjudligi)

onaga ko'krak so'rg'ichlarini qanday qilib bolaga tutish va bir necha tomchi og'iz sutini siqib chiqarishni tushuntirish,

bola ogzini ochib, so'rg'ichlarni to'liq og'ziga olishini kutish (surgichni areolasini tulik ogziga olishi lozim)

onaning his-tuyg'ularini so'rash va uning reaksiyasiga e'tibor berish

Muolaja davomiyligi chegarlanmagan, emizish vaqtida bolaning teri qoplami rangi va nafas olishiga e'tibor berish lozim

Moneliklar: onada ochiq sil, onasi sitostatik dorilar qabul qilganda, onada OVI/VICH musbat bo'lganda.

Ko'krak sutini qo'l yordamida sog'ish qoidalari:

- Sog'ishdan oldin qo'lni yaxshilab yuving.
- Sog'ish uchun qulay idishlar (stakan, chashka, banka, piyola,) tanlash lozim. ularni sovun yordamida yuvish, qaynoq suvda chayish lozim.

- O'tirgan yoki turgan xolda idishni ko'krakka yaqin masofada ushlang.
- Qo'lning bosh barmog'ini ko'krak areolasi ustida so'rg'ichdan yuqorida ushlab, ko'rsatkich barmoq esa ko'krakni pastki qismida, qolgan barmoqlar yordamida ko'krakni ushab turing.
- Bosh va ko'rsatkich barmoq yordamida ko'krakni yengil ezib, xarakatni ko'krak qafasi tomon davom ettiring.
- Bosh va ko'rsatkich barmoq yordamida kuchni ko'proq areola atrofida qo'llash va bu orqali ko'krakdagi sut sinuslarini (xaltachalarini) bo'shatishga intiling.
- Og'riq paydo bo'lsa sog'ish taktikasini o'zgartiring.
- Sog'ish davrida sut darrov hosil bo'lmasa, avval oksitotsin refleksi qo'zg'atiladi, u kuchli bo'lsa sut chizillab otilib chiqib boshlaydi.
- Sog'ish jarayonida ko'krak bezi terisini silash yoki kuchli ezishdan extiyot qilish lozim.
- Har bir ko'krakni aloxida ketma-ket 3-5 minutdan sog'ish va ko'krakda sut qolmaganiga ishonch hosil qilganda to'xtatish kerak.
- Iloji boricha sog'ilgan sutni idishchalar yordamida ichirish kerak. so'rg'ichni qo'llash keyinchalik ko'krakdan emishga to'sqinlik qilish mumkin.

NAFAS OLGAN BOLA REANIMATSIYASI USKUNA VA VOSITALAR

- Chaqaloklar uchun o'zi yoziladigan nafas kopchasi (agar chaqaloklar uchun mo'ljallangan kopcha bo'lmasa, katta yoshdagilar kopchasidan ham foydalanish mumkin).
- Chaqaloklar uchun nikob (vazni kam bola uchun 0 o'lchami [tug'ilishda 2.5 kg dan kam yoki homiladorlikning 37-haftasigacha tug'ilgan bola] va muddatida tug'ilgan bola uchun 1 o'lchami). So'rg'ich (aspirator) (mas., DeLee shilliq so'rg'ichi).
- Kislorod manbai (agar bo'lsa).

USLUBIYAT

- Zarur uskuna (jihoz) va vositalarni yig'ing.
- Qo'llarni yuving.
- Reanimatsiya uchun ishlatiladigan uskuna bekam-ko'st ishlashiga ishonch hosil qiling. Niqob yuzasini kaft bilan zich yoping va ikkinchi ko'l bilan qopchani bosing:
 - agar siz qo'lingiz bilan yetarly karshilikni sezsangiz, demak, kopcha yetarli bosimga erishmolda;
 - agar siz qopchani ko'yib yuborganingizda kopcha o'z holiga kaytsa, bu uning bekam-ko'st ishlashidan darak beradi.
- Bolani o'ralgan yoki usti yopilgan holatda ushlang, yuzi va ko'kraging yuqori qismini ochik qoldiring.
- Bolani qattiq, nur issikligi manbai ostidagi ilik yuzaga yotqizing.

NAFAS YO'LLARINI TOZALASH

- Bolani to‘g‘ri holatda yotkizing:
 - bolani chalkancha yotkizing;
 - nafas yo‘llarining o‘tkazuvchanligini ta‘minlash uchun bolaning boshini xiyol orkaga tashlang (bo‘yni kattalardagi kabi cho‘zilib turmasligi kerak). Buning uchun bolishcha qilib o‘ralgan yo‘rgak (pelyonka) bolaning yelkalari tagiga qo‘yiladi.

Agar shilliq yoki kusuq suyuqligi bo‘lsa, uni avvaliga og‘zidan, ke-yin esa burnidan so‘rib olib, nafas yo‘llarini tozalang.

- Agar bolaxanuzgacha nafas olmasa, kopcha va niqob yordamida ventilyatsiyani boshlang.

QOPChA VA NIQOB YoRDAMIDA VENTILYatsIYa

- Bola holatini takroran tekshiring va uning boshi xiyol orkaga tashlanganiga ishonch hosil qiling.
- Nikobni to‘g‘ri qo‘ying va uning germetikligini tekshiring:
 - nikobni bolaning yuziga uning iyagi, og‘zi va burnini yopadigan qilib ko‘ying;
 - niqob va bolaning yuzi o‘rtasidagi germetiklikni ta‘minlang;
 - kopchani fakat ikkita barmok (kattalar uchun kopcha) yoki butun ko‘l bilan (yangi tug‘ilganlar uchun kopcha) qising;
 - ikki marta (bir juft) nafas berib va ko‘krak qafasining harakatlanishini kuzatib, nikob va bola yuzi o‘rtasidagi germetiklikni tekshiring.

Nikob holati va uning germetikligini tekshirish

- Agar germetiklik ta‘minlansa va ko‘krak qafasining xarakatlari yakkol ko‘rinsa, kisloroddan foydalanib, bolani vengilyatsiya qiling. Agar kislorod hali bor bo‘lmasa, xona havosi yordamida ventilyatsiyani boshlang.
- Ventilyatsiya vaktida nafas olishda to‘g‘ri chastotani (minutiga taxminan 40 marta) va bosimni ushlab turing:
 - agar bolaning ko‘krak qafasi ko‘tarilsa, ventilyatsiya vaqtida nafas olishda bosim, ehtimol, yetarlicha hisoblanadi;
 - agar ko‘krak kafasi ko‘tarilmasa:
 - bolaning holatini yana bir marta tekshiring, va zarurat bo‘lsa, bolaning holatini yaxshilang;
 - niqob va bolaning yuzi o‘rtasidagi germetiklikni yaxshilash uchun bolaning yuziga takroran nikob qo‘ying;
 - ventilyatsiya vaktida nafas olishda bosimni ko‘paytirish uchun kopchani kattiqroq kising.
- Ventilyatsiyani bir minut mobaynida davom ettiring, va so‘ngra to‘xtang hamda mustaqil nafas olayotganiga tez ishonch hosil qiling:
 - agar nafas olish soni normal bo‘lsa (minutiga 30-60 marta nafas), ventilyatsiyani to‘xtating;

- agar markaziy sianoz (til va lablar ko'kimtir), to'shning ichga tortilishi, nafas chikarishda ingrash, yoki nafas olish soni minutiga 20-30 yoki 60 martadan ko'p bo'lsa, nafas yetishmovchiligini davolang;
- agar bolada gasping ko'rinishida noregulyar nafas olish bo'lsa u nafas olmayotgan bo'lsa, yoki uning nafas olish soni minutiga 20 martadan kam bo'lsa, ventilyatsiyani davom ettiring.
- Agar bola yig'lay boshlasa, ventilyatsiyani to'xtating va bola tinchlanishi bilan, besh dakika mobaynida uning nafas olishini kuzating:
 - agar nafas olish soni normal bo'lsa (minutiga 30-60 nafas) ventilyatsiyani to'xtating;
 - agar markaziy sianoz (til va lablar ko'kargan), to'sh su gining ichga tortilishi, nafas chiqarish vaqtida ingrak bo'lsa, nafas olish soni minutiga 20-30 yoki 60 dan ortiq bo'lsa, nafas yetishmovchiligini davolang;

TANA HARORATINI O'LCHASH VOSITALAR

- Tana haroratini 35°S dan (ko'ltikda) o'lchash mumkin bo'lgan termometr.
- Tana haroratini 25°S dan (rektal) o'lchash mumkin bo'lgan termometr.
- Dezinfeksiyalovchi eritma. Asosi suv bo'lgan surtma dori (malham).

USLUBIYAT

Qo'ltiq haroratini o'lchash

- Zarur vositalarni jamlang.
- Qo'llarni yuving.
- 35°S dan boshlab tana haroratini o'lchash mumkin bo'lgan oddiy termometr ishlating.
- Termometrning tozaligiga ishonch hosil kiling.
- Haroratni o'lchash vaktida bolani imkon boricha issiq tutishni minlang (ya'ni uni o'rang yoki iliq yuzaga yotqizing).
- Bolani chalqancha yoki bnboshi bilan yotqizing.
- Termometr 35°S dan kamni ko'rsatish uchun uni silkiting.
- Termometr uchini bolaning ko'ltik chukchurasiga chuqur kiriting va qo'lini tanasiga 3 (uch) daqiqagacha kisib turing.
- Termometrni chikaring va haroratni ko'ring. Agar bolaning xarorati shu termometrga (35°S dan past) o'lchash mumkin bo'lgan xolda juda past bo'lsa, rektal haroratini o'lchang.
- Foydalanishdan so'ng termometrni dezinfeksiyalovchi eritma bilan arting.

Rektal haroratni o'lchash

Rektal haroratni, oddiy termometr bilan juda past ko'ltiq haroratini o'lchash mumkin bo'lmagan holdagina o'lchang.

- Zarur vositalarni jamlang.
- Qo'llarni yuving.
- 25°S dan boshlab haroratni o'lchash mumkin bo'lgan termometrdan foydalaning.
- Termometrning tozaligiga ishonch hosil kiling.

- Haroratni o'lchash vaqtida bolani issik tutishni ta'minlang (ya'ni uni o'rang yoki iliq yuzaga yotqizing).
- Bolani chalkancha yoki yonboshi bilan yotkizing.
- Termometr 25°S dan kamni ko'rsatish uchun uni silkiting.
- Bolaning to'piqlaridan ohista tutib, oyoqlaridan ushlab, tizzalarini uning ko'krigiga xiyol bosing.
- Termometrni to'g'ri ichakka ko'pi bilan 2 sm ga kiriting, termometrni shu tariqa kamida 3 dakika ushlab turing.
- Termometrni chiqaring va Qanday haroratni ko'rsatganini ko'ring. Ishlatilgandan so'ng termometrni dezinfeksiyalovchi eritma bilan arting.

Gepatit V (VGV) virusiga qarshi vaksinatsiya qilish

1. Maqsad

Gepatit V virusiga qarshi aktiv immunitet hosil qilish

2. Vosita

Emlash uchun maxsus jihozlangan xona (xolodilnik, stol va bosh.).

VGV ga qarshi vaksina.

Bir martalik ishlatiladigan shprits.

Steril yoki toza rezina qo'lqop.

Steril paxta.

70% li spirt.

Ishlatigan shpritslarni xavfsiz yig'ish uchun tayyorlangan maxsus idish (ign o'tkazmaydigan konteyner).

3. Amaliyot

Immunizatsiyani maxsus tayyorlangan hamshira o'tkazishi kerak

Agar onada HbsAg musbat bo'lsa yoki unda HbsAg statusi aniq bo'lmasa:

-hamma yangi tug'ilgan chaqaloqlar, uning tug'ilgandagi tana massasi va umumiy

holatidan qat'iy nazar hayotining birinchi 12 soatida emlanishi kerak.

Agar onada HbsAg manfiy bo'lsa:

-hamma yangi tug'ilgan chaqaloqlarni tana massasi >1800 g, bo'lsa va umumiy holati

qanday bo'lishiga qaramay hayotining birinchi sutkasida emlanishi kerak.

-hamma yangi tug'ilgan chaqaloqlarni tana massasi <1800 g, bo'lsa, unda tana massasi

1800g ga yetganida yoki tug'ruqxonadan chiqayotganda emlanishi kerak.

Qo'lni yuvish.

Qo'lqopni kiyish.

Amaliyotni bajarishdan oldin bolani og'riqsizlantirish (protokol "Yangi tug'ilgan chaqaoqni og'riqsizlantirish").

Shpritsga 0,5 ml HbsAg vaksinasini tortish.

Vaksinani sonning yuqori oldingi yon qismiga muskul ichiga yuborish.

Bolaning rivojlanish kartasiga qilingan amaliyotni yozib qo'yish.

4.Asoratlar

Postvaksinal reaksiyalar

-in'ksiya qilingan joy giperemiyasi yoki qattiqlashishi.

Ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari

Ona sutining chaqaloq va ilk yoshdagi bolalar uchun ahamiyati

- Dastlabki 6 oy davomida faqat ko'krak suti bilan boqish chaqaloqlar o'rtasidagi kasalliklar va o'limni kamaytiradi.
- 6 oygacha ko'krak suti bilan boqish bolaning o'sish va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha ozuqa moddalarni o'z tarkibida saqlaydi.
- O'sish va rivojlanishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sishning kechikishini oldini olish imkonini beradi.
- Doimo toza bo'ladi.
- Kasalliklarga qarshi, ayniqsa, diareya, respirator kasalliklardan himoya etuvchi antitelolarni o'z ichiga oladi.
- Har doim tayyor va kerakli haroratga ega.
- Yengil hazm bo'ladi va bola organizmida to'laqonli so'riladi.
- Bolaning ehtiyojini qondirish uchun yetarli miqdorda suv mavjud.
- Tish va milklar rivojlanishiga yordam beradi, bolaning emishi uning yuz va jag'ining tuzilishini rivojlantiradi.
- Ona va bola o'rtasida uzviy munosabatlar shakllanib, bolaning aqliy, psixomotor, ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qiladi.
- Kognitiv (aqliy) rivojlanish o'rtacha 2–3 ball yuqori.
- Chaqaloq uchun og'iz suti kasalliklardan himoya etuvchi foydani beradi.
- Kelajakda bolalar orasida uchraydigan diabet va semizlik kasalliklaridan himoyalanaadi.

Ona uchun bolani ko'krak suti bilan boqishning ahamiyati

- Agar ona kecha va kunduz faqat emizib boqsa, hayz davri qayta tiklanmasa, emizish 98% holatda dastlabki 6 oy davomidagi samarali kontratseptiv vositasi bo'lib hisoblanadi.
- Bola tug'ilishi bilan uni ko'krakka tutish bachadonning qisqarishini, yo'ldoshning ko'chishini rag'batlantiradi.
- Emizish qon ketish xavfini kamaytiradi.

- Chaqaloq tugʻilishi bilan uni darhol koʻkrakka tutish sut ishlab chiqarilishini ragʻbatlantiradi.
- Emizish onaning ish yuklamasini kamaytiradi (chaqaloq uchun sut aralashmasini sotib olish, suvni qaynatish, yonilgʻi materiallarini yigʻish, sutli aralashma tayyorlash).
- Ona suti har qanday vaqtda va har qanday sharoitda mavjud boʻlib, u doimo toza, toʻyimli va kerakli haroratga ega.
- Oila byudjetini tejaydi, hech qanday sutli aralashmalar sotib olishga hojat qolmaydi.
- Ona va bola orasida mehrga toʻla munosabatlar shakllanadi.
- Emizish koʻkrak va tuxumdon saratonining xavfini kamaytiradi.

Oila uchun bolani koʻkrak suti bilan boqishning ahamiyati

- Koʻkrak suti bilan emizib boqiladigan goʻdaklar kam kasal boʻladilar, natijada davolanishga ketadigan xarajatlar tejaladi.
- Sut aralashmalari sotib olinmaydi, yoqilgʻi ishlatilmaydi, doimo sut aralashmalarini tayyorlashga hojat boʻlmaydi.
- Agar ona kecha va kunduz faqat emizib boqsa, hayz davri qayta tiklanmasa, tugʻuruqlar orasidagi vaqt yetarli boʻladi.
- Kasallik tufayli davolanishga vaqt sarflamaydi.

Eslatma: oila aʼzolari onaga ovqatlantirish bilan bogʻliq boʻlmagan uy ishlariga yordam berishlari kerak.

Jamiyat/millat uchun bolani koʻkrak suti bilan boqishning ahamiyati

- Sogʻlom bolalar sogʻlom millatni tashkil etadi.
- Koʻkrak suti bilan emizib boqiladigan goʻdaklarning kamroq kasal boʻlishiga erishilib, davolanishga ketadigan xarajatlar kamayadi.
- Koʻkrak suti bilan emizib boqilgan bolalarning orasida kasallanish va oʻlim koʻrsatkichi kamayadi.

Bolani koʻkrakka toʻgʻri tutish qoidalarining belgilari

Yuqoridagi rasmda koʻkrakka toʻgʻri tutish qoidasining toʻrtta asosiy belgilari tasvirlangan. Bu belgilar ona va bola yordamga muhtojligini anglatishi mumkin:

- areolaning (qorachiq) koʻp qismi bolaning pastki labi emas, yuqori labi ustidan koʻrinib turadi;
- bolaning ogʻzi katta ochiq;
- bolaning pastki labi tashqariga qayrilib koʻrinib turadi;
- bolaning iyagi koʻkrakka tegib yoki nisbatan tegib turadi.

Bu belgilar bolaning ko'krakka yaqinligini va ko'krakning ko'p qismini qamrab olish uchun og'zini ochishini ko'rsatadi. Birinchi belgi bolaning ko'krak va ko'krak uchini pastdan olish orqali ko'krakning bola tanglayiga tiralishiga va sut naylari ustiga bosish uchun tilning ko'krak bezi to'qimasi ostiga joylashishiga imkon berishini ko'rsatadi. Barcha to'rt belgining borligi bola ko'krakka to'g'ri tutilganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, emizish ona uchun qulay bo'lishi kerak.

Noto'g'ri emizish belgilari

- Bola faqat ko'krak uchini emadi, ko'krakka noto'g'ri tutilgan bola yaxshi ema olmasligi mumkin.
- Ko'krakka noto'g'ri tutilgan bolada sut yo'llaridan sut to'liq ajralmaydi, buning natijasida yetarli miqdordagi sut chiqmaganligi uchun ko'krak shishib qolishi, sut yo'llarining tiqilib qolishi, ko'krak uchining yorilishi yoki yallig'lanishiga sabab bo'lishi mumkin. Emizish og'riqli kechadi.

Noto'g'ri emizish oqibatlari

Bola noto'g'ri emadigan bo'lsa, u yetarlicha sutni emib ololmaydi va buning natijasida:

- bola tomonidan yetarli miqdordagi sut emib olinmaganligi uchun ko'krak shishib qolishi, sut yo'llarining tiqilib qolishi yoki mastit kelib chiqishi mumkin;
- bola ko'krak sutini kam iste'mol qilishi va uning vazni kamayishiga olib kelishi mumkin;
- bola ko'krakdan bosh tortib, emmay qo'yishi mumkin;
- bola to'ymaganligi sababli uzoq muddat yoki juda tez-tez emishi mumkin;
- haddan tashqari uzoq emizish ko'krak uchining uzoq qo'zg'atilishiga va natijada sutning ortiqcha ishlab chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Onaning holati

Ona o'z xohishiga qarab o'tirishi, yotishi (quyida rasmda keltirilganidek holatda bo'lishi) mumkin.

Lekin u o'zini umuman bo'sh tutishi va bezovta bo'lmasligi, ayniqsa, bel sohasi tarang holda

bo'lmisligi kerak. O'tirgan holatda orqaga tayanch kerak bo'lib, bolani oldinga egilmasdan tutib tura
oladigan holatda bo'lishi zarur.

Bolaning holati

Emizish paytida bola onasiga nisbatan turli holatda – ko'ksida, qornida, qo'li ostida yoki tanasi yonida bo'lishi mumkin.

Onaning va bolaning onaga nisbatan holati qanday bo'lishidan qat'i nazar amal qilinishi lozim

bo'lgan to'rt asosiy qoida bor:

- bolaning boshi va gavdasi bir chiziqli bo'lishi kerak;
- bola ona tanasiga qaratilgan bo'lishi, uning burni ko'krak uchi sathida bo'lishi lozim. Bu

bolaning ko'krakni yaxshi emishi uchun eng qulay holatdir, chunki aksariyat ayollarda ko'krak

uchi biroz pastga qaragan bo'ladi;

- bolaning tanasi onaga yaqin bo'lishi kerak, bu uning ko'krakka yaqin bo'lishi va yaxshi emishiga imkon beradi;

- ona bolaning butun tanasini tutib turishi lozim. Bola to'shakka yotqizilgan holatda, yostiq

bilan ushlab turgan yoki onaning tizzasida yoki qo'lida bo'lishi mumkin. Ona bolani faqat

boshi, yelkasi yoki tananing quyi qismidan tutib turmasligi kerak, bu bolani ko'krakdan

uzoqlashtiradi, buning natijasida esa uning ko'krakka yetishi va areola ostini to'liq til

bilan qamralishini qiyinlashtiradi.

Bu qoidalarga amal qilish chaqaloq hayotining ilk ikki oyida, ayniqsa, muhimdir

Ko'krak suti bilan emizishning oralig'i va davomiyligi

Olti oy davomida chaqaloqni istisnosiz ko'krak suti bilan emizib boqishda yetarli miqdorda sut

ishlab chiqarilishi hamda ajratilishi uchun bola kunduzi ham, kechasi ham talabga binoan istagan vaqt

oralig'ida va davomiylilikda emishi kerak. Bu istakka qarab emizish cheklanmagan/erkin emizish yoki bola belgilaydigan emizish deyiladi.

Bola turli vaqt oralig'ida emadi va har emganda turli hajmda sut iste'mol qiladi.

Bolaga ko'krak to'g'ri tutilishi sharti bilan emizish davomiyligi va oralig'ini cheklamaslik kerak.

Ko'krak uchining shikastlanishi bolaning uzoq emishidan emas, ko'krakni noto'g'ri tutilishidan kelib

chiqadi.

Qorni ochgan bolaning yig'lashidan avvalgi ilk belgilari: bezovtalik, og'zi bilan ko'krak qidirishi

yoki barmoqlarini so'rishi. Ona bolaning qorni ochishi va emishga tayyorligi to'g'risidagi belgilarga

vaqtida javob berishni o'rganishi muhim. Bola ko'krakni o'zi qo'yib

yubormaguncha emishda davom etish

imkoniga ega bo'lishi lozim. Qisqa dam olgandan so'ng bolaga ikkinchi ko'krakni tutish, bola o'z xohishiga

qarab yana emishi yoki emishni to'xtatishi mumkin.

Agar bola juda uzoq muddat emsa (har emizganda yarim soatdan ko'p) yoki juda tez-tez emishni istasa

(har yarim yoki bir soatda) ko'krak to'g'ri tutilayotganini tekshirib ko'rish va lozim bo'lsa to'g'irlash kerak

Bo'ladi.

Muddatidan oldin tug'ilgan bolalar uchun zarur bo'lgan sut miqdorini hisoblash:

Chala tug'ilgan chaqaloqqa zarur bo'lgan ovqatning sutkalik xajmi VOZ taklif etgan tablitsalardan foydalaniladi:

Tana vazni 1.25 kg dan kam bulgan chakaloklarning vena ichiga yuboriladigan suyuklik tezligi va kukrak sutining xajmi

	Xayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuklik tezligi(ml/s yoki mikrotomchi/min)	4	4	3	3	2	2	0
Xar 2 soatdagi ovkatlanish xajmi (ml/ovkatlantirish) 8-10 maxal	0	0	3	5	8	11	15

Tana vazni 1.25-1.49 kg bulgan chakaloklarning vena ichiga yuboriladigan suyuklik tezligi va kukrak sutining xajmi

	Xayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuklik tezligi(ml/s yoki mikrotomchi/min)	3	3	3	2	2	0	0
Xar 2 soatdagi ovkatlanish xajmi (ml/ovkatlantirish) 8-10 maxal	0	6	9	16	20	28	30

Tana vazni 1.5-1.749 kg bulgan chakaloklarning vena ichiga yuboriladigan suyuklik tezligi va kukrak sutining xajmi

	Xayot kunlari
--	---------------

	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuqlik tezligi(ml/s yoki mikrotomchi/min)	4	4	3	2	2	0	0
Xar 2 soatdagi ovkatlanish xajmi (ml/ovkatlantirish) 8-10 maxal	0	6	13	20	24	33	35

Tana vazni 1.75-2.5 kg bulgan chakaloklarning vena ichiga yuboriladigan suyuqlik tezligi va kukrak sutining xajmi

	Xayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuqlik tezligi(ml/s yoki mikrotomchi/min)	5	4	3	2	0	0	0
Xar 2 soatdagi ovkatlanish xajmi (ml/ovkatlantirish) 8 maxal	0	6	14	22	30	35	38

Masalan: chakalok 4 kunlik, tana ogirligi 1,8 kg. Jadval yordamida kerakli bo‘lgan ovqat xajmini topamiz. Xar 2 soatda beriladigan ko‘krak suti 22 ml.

$$22 \text{ ml} \times 8 = 176 \text{ ml}$$

$$\text{Suyuqlik xisobi} - 5 \times 24 = 48 \text{ ml}$$

Bola tavsiya etilgan sut miqdorini qabul qilayotgan bo‘lsa, suyuqlik yetishmovchiligi 48 ml ni tashkil etadi. Tavsiya etilgan sut miqdoridan kam qabul qilayotgan bo‘lsa, qolgan miqdorini suyuqlik shaklida berishimiz kerak.

8 kunlikdan boshlab kaloriya usulida aniqlanadi – 10 kkal xnxTV

Masalan: 10 kunlik chala tug‘ilgan bola. TV - 1800 gr.

1 kunda ichishi kerak sut miqdori $10 \text{ kkal} \times 1,8 \times 10 = 180 \text{ kkal}$ kerak.

100 ml ona sutida 70 kkal bo‘lsa,

$$X - 180 \text{ kkal} \quad X = 100 \times 180 : 70 = 255 \text{ ml.}$$

255 ml 8 martaga bo‘lsak 1 martalik sut xajmi 32 ml ni tashkil qiladi

Onani emizishga umuman ruxsat etilmaydigan xolatlar:

1.Bola tomondan:

- miyada qon aylanishning utkir ogir buzilishlarida.
- rezus va qon guruxi tugri kelmaganda, gemolitik kasallikda,
- chukur chala tugilganda (surish va yutish refleksleri yuk),
- ogir distres sindromda (nafas yetishmovchiligi),

2.Ona tomondan ruxsat etilmaydigan xolatlar:

- buyrak yetishmovchiligi bilan kechayotgan buyrak kasalliklari,
- yurak yetishmovchiligi bilan kechayotgan tugma yurak paroklari, endo va miokarditlar
- ogir qon sistemasi kasalliklari,
- Bazedov kasalligi,
- yomon sifatli usmalar,

- utkir ruxiy kasalliklar.

Nisbatan ruxsat etilmaydigan xolatlar.

1. Ona tomonidan:

- sil kasalligi aktiv formalarini dastlabki 1 -2 oyida.

- sifilis agar ona xomiladorlikni 5-7 oyida shu kasallik bilan zararlangan bulsa.

- toshmali va kaytalama tiflar.

- chin chechak.

Onani emizishga absolyut va nisbiy moneliklarda chaqaloqlar sun'iy

6.5 YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VA`ZIYATLI MASALALAR .

1 – variant

1 – masala

Ko'krak bilan emiziyotgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarga ona ko'kragi taranglashganligini uchun ayol, antibakterial malxam surtgan, natijada bola emmay qo'ygan.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Shifoxonada chaqaloq 37-38 haftalik muddatda tug'ilgan, og'irligi 3500 gramm, bo'yining uzunligi 52 smni tashkil etgan, teri normal rangda bo'lgan umumiy ahvoli yaxshi, 3 kunda qayta massasi o'lchanganda 3400 grammni tashkil etayotgani qayd etildi.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?
- 6.

2 – variant

1 – masala

Onasini so'zidan, aytishicha, bolasi kechasi bilan ko'p yig'lab ko'krakni inkor etmoqda. Obektiv tekshirilganda aktiv, harakatchan, qorni dam, palpatsiyada og'riqli.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Aniqlanishicha ayolda gepatit tashxisi qo'yilgan va tug'riqdan keyin bolasini emizishni xoxlayotganligini aytmoqda, bolani tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan oziqlantirishligi haqida siz nima maslahat berasiz?

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

3 – variant

1 – masala

Emizishni qo'llab - quvvatlovchi guruhlar to'zilisini rag'batlantirilishi hamda tug'ruqxonadan yoki shifoxonalardan chiqarilayotgan onalarni shunday guruhlarga yuborish shartmi?

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Yangi tug'ilgan chaqaloq boshini tepa va chakka soxalarida shish va bosh chanog'ini shakli o'zgarganligi kuzatilmoqda, bola ko'p yig'lab, qisman ko'krakdan bosh tortib kelmoqda. Tug'ilganida Apgar shkalasi bo'yicha 8 ball to'plagan, ob'ektiv boshqa o'zgarishlar aniqlanmadi.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

4 – variant

1 – masala

Ayolni birinchi tugʻriq ekanligi uchun u bolani emiza olmayotganligini va bolasi uxlab qolayotganligini aytib yordam koʻrsatishni soʻrab murojaat qildi.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Ayolni sut bezi koʻzdan kechirilganda, qizarganligi kuzatilmoqda. Ogʻrikni doimiyli va xaroratni koʻtarilishi aniqlandi.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

5 – variant

1 – masala

Soglom tugilgan kiz bola chakalokning jinsiy aʼzosidan konli ajralma kelishi kuzatildi. Ona vaximada. Chakalokning barcha kursatkichlari normada, umumiy axvoli xam yaxshi.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Soglom tugilgan ugil bola chakalokning kukrak bezlarida shish kuzatilmokda. Chakalok axvoli nisbatan yaxshi. Emishi va uxlashi xam normada. Onaning suzlaridan, chakalok tugilganida bu xolat kuzatilmagan.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?

3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

6 – variant

1 – masala

Yangi tugilgan chakalok, onasining suzlaridan kup yiglayapti, uykusi bexalovat. Korin soxasi taranglashib, bola uzini orkaga tashlab tez –tez bezovta bulyapti. Ichi kelmaganiga ikki kun bulgan.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Ayol yangi tugilgan chakalogini kup uxlashiga shikoyat kilyapti. Chakalok butunlay soglom dunyoga kelgan. Vazni 3450gr, buyi 49 sm tugilgan. Apgar shkalasi buyicha 8 ball olgan. Tugrukdan keyin xam xech Qanday patologiya kuzatilmagan.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

7 – variant

1 – masala

Ayol kukragida yorilishlar bulganligi sababli, boshkalar maslaxati bilan unga balik moyi surtgan. Keyinchalik kukragini emizish uchun chakalogiga tutganida, chakalok emishdan bosh tortib emmay kuygan.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?

3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Chaqaloq tugruksxonada 38-39 haftalik muddatda tug‘ilgan, og‘irligi 3400 gramm, bo‘yining uzunligi 50 smni tashkil etgan, teri normal rangda bo‘lgan umumiy ahvoli yaxshi, 3 kunda qayta massasi o‘lchanganda 3100 grammni tashkil etayotgani qayd etildi.

Savollar:

1. Qanday taktika kullaysiz?
2. Qanday tashxis kuyasiz?
3. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
4. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
5. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

8 – variant

1 – masala

Onasini so‘zidan, aytishicha, bolasi kechasi bilan ko‘p yig‘lab ko‘krakni inkor etmoqda, uykusi bexalovat. Ob‘ektiv tekshirilganda aktiv, harakatchan, qorni dam, palpatsiyada og‘riqli.

Savollar:

6. Qanday taktika kullaysiz?
7. Qanday tashxis kuyasiz?
8. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
9. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
10. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Aniqlanishicha ayolda OIV tashxisi qo‘yilgan va tug‘riqdan keyin bolasini emizishni xoxlayotganligini aytmoqda, bolani tabiiy yoki sun‘iy yo‘l bilan oziqlantirishligi haqida siz nima maslahat berasiz?

Savollar:

6. Qanday taktika kullaysiz?
7. Qanday tashxis kuyasiz?
8. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?

9. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
10. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

9 – variant

1 – masala

Ayol tugruk patologiyasi sabab kesarcha kesish yuli orkali soglom bola dunyoga keltirdi. Chakalokning xolati yaxshi. Lekin ona reanimatsiyada kolganligi sababli chakalokni ovkatlantirish buyicha karor kabul kilish kerak.

Savollar:

6. Qanday taktika kullaysiz?
7. Qanday tashxis kuyasiz?
8. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
9. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
10. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Yangi tug‘ilgan chaqaloq boshini tepa va chakka soxalarida shish va bosh chanog‘ini shakli o‘zgarganligi kuzatilmoqda, bola ko‘p yig‘lab, qisman ko‘krakdan bosh tortib kelmoqda. Tug‘ilganida Apgar shkalasi bo‘yicha 8 ball to‘plagan, ob‘ektiv boshqa o‘zgarishlar aniqlanmadi.

Savollar:

6. Qanday taktika kullaysiz?
7. Qanday tashxis kuyasiz?
8. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
9. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
10. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

10 – variant

1 – masala

Ayolni birinchi tug‘riq ekanligi uchun u bolani emizishda kiyinchilik bulayotgani va bolasi tinmay yiglab bezovta bulayotganidan, emizish vaktida bola xavo yutib kiynalyotganidan, kup kaytkilishidan shikoyat kilib yordam ko‘rsatishni so‘rab murojaat qildi.

Savollar:

6. Qanday taktika kullaysiz?
7. Qanday tashxis kuyasiz?
8. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?

9. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
10. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

2 – masala

Ayol umumiy xolsizlikka shikoyat kilmokda. Sut bezi koʻzdan kechirilganda, qizarganligi kuzatilmoqda. Ogʻrikni doimiyliigi va xaroratni koʻtarilishi aniqlandi.

Savollar:

6. Qanday taktika kullaysiz?
7. Qanday tashxis kuyasiz?
8. Qaysi mutaxassisga yunaltirasiz?
9. Taxminiy davolanish Qanday buladi?
10. Qanday tavsiya va maslaxat bera olasiz?

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVT XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH
VA IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI
“NEONATOLOGIYADA XAMSHIRALIK ISHI” YO‘NALISHIDAGI ISHCHI
O‘QUV DASTURI” GA

T A Q R I Z

Ishchi o‘quv dasturi Mamlakatimizda axoliga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini islox qilish jarayonida onalik va bolalikni muxofaza qilish, “Sog‘lom onadan –sog‘lom farzand” tamoyillini xalq ongiga sindirishga aloxida e‘tibor qaratilmoqda ularga asoslanib ushbu ishchi dastur yaratildi.

“Neonatologiyada xamshiralik ishi” yo‘nalishidagi malaka oshirish sikli bo‘yicha kasbiy o‘quv modul ishchi o‘quv reja asosida Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o‘qituvchilari va tibbiy ta‘limni rivojlantirish markazi mutaxassisleri tomonidan tayyorlangan. Ushbu kasbiy modul dasturi bo‘yicha “Neonatologiyada xamshiralik ishi” guruhlarida mehnat faoliyatida uzilish bo‘lmagan va uch yildan ortiq neonatologiya bo‘limi, chaqaloqlar patologiya bo‘limi xamshirasi lavozimida ishlagan o‘rta tibbiyot xodimlari o‘qitiladi.

Shuning bilan onalarga o‘z bolasini parvarish qilish usullari, ulardagi xavfli belgilarni aniqlash, ko‘krak sutining axamiyati, chaqaloqlik davri kasalliklari, tug‘ruq zalida issiklik zanjiri axamiyati, chala tug‘ilgan chaqaloqlar parvarishi, kenguru usuli, chaqaloqlarni tug‘ruk zalida jonlantirish AVSD qadamlari, chaqaloq patologiya bo‘limlaridagi apparaturalar bilan ishlash bo‘yicha mavzular keng yoritilib berilgan.

Ishchi dastur asosida olib boriladigan mashg‘ulotlar davomida tinglovchilar malaka oshirish markazi o‘quv auditoriyalarida, Respublika davolash profilaktika muassasalarining tug‘ruk komplekslarida, perinatal markazlarida o‘qitiladi va tibbiyot soxasidagi yangiliklar, tibbiyotdagi zamonaviy tekshiruv usullari, chaqaloqlarga kechiktirib bo‘lmaydigan yordam va parvarishni, hozirgi kunda qo‘llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to‘g‘risida ma‘lumot oladilar. Nazariy mashg‘ulotlar ma‘ruzalar, suxbatlar va boshqa turli shakllarda markaz yoki o‘quv maskani o‘quv xonalarida, amaliy mashg‘ulotlar esa, asosan tug‘ruq bo‘limlarida va bolalarni davolash muassasalarining chaqaloqlar patologiya bo‘limlarida, perinatal markazlarda olib boriladi.

ADTI davolash fakulteti uchun

“Pediatriya va neonatologiya” kafedrası dotsenti:



SH.X. Atajanova



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVT XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH
VA IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI
“NEONATOLOGIYADA XAMSHIRALIK ISHI” YO‘NALISHIDAGI ISHCHI
O‘QUV DASTURI” GA**

T A Q R I Z

Keyingi yillarda onalik va bolalikni muxofaza qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan Davlat dasturlari asosida xalqaro tashkilotlar, Jaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti bilan xamkorlikda olib borilayotgan loyihalarni amalga oshirilishi natijasida erishildi.

Respublikamizda sog‘liqni saqlash Davlat dasturi asosida tuzilgan skrining markazi faoliyati natijasida tug‘ma nuqson va irsiy kasalliklarni erta aniqlashga erishilyapti. Bugungi kunda yuqorida keltirilgan loyixalarga, skrining markazi faoliyati va perinatal markazi ishlarining faol kechishi natijasida go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichi bir qancha darajaga pasaytirildi.

Ishchi dasturda ona va bola salomatligini saqlashdagi xamshiralik jarayoni, xamshira etika va deontologiyasiga e’tibor, axoli o‘rtasida olib borilayotgan reproduktiv salomatlik ishlari, bexatar onalik borasida bugungi kunda olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Tinglovchilar malaka oshirish markazida olgan bilimlarini amaliy jixatlarini o‘rganadilar, amaliy ko‘nikmalarni qo‘llagan xolda chaqaloqlarni tekshirish va parvarishlash jarayonida qatnashadilar.

Mutaxassislik fanlari blokida “Neonatologiyada hamshiralik ishi” bo‘yicha tegishli mavzular kichik modul shaklida qamrab olingan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari yangi tug‘ilgan chaqaloq bo‘limlari hamshiralarini malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, lozim bo‘lgan yangi bilimlar va ko‘nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish lozim) yetarli darajada o‘zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

Nazariy mashg‘ulotlar ko‘rgazmali qurollar, texnika vositalari (slaydaskop, videotasvirlar), muammoli masalalar va test savollari yordamida olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulotlar nazariy bilimlarning bevosita davomi bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘lanishiga e’tiborni qaratadi.

ADTI davolash fakulteti uchun

“Pediatriya” kafedrası mudiri T.F.N. dotsenti:

Arzibekov

A.G.Arzibekov

